



Volume 3, Issue 3(16), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	5-9
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	10-14
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	15-19
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	20-23
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	24-27
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	28-31
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	32-34
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	35-38
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	39-41
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	42-46
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	47-51
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	52-55
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	56-59
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	60-64
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	65-69
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	70-73
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	74-78

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermon</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишида талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришида муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

JAMIYAT HAYOTIDA LIBOSLARNING O’RNI

Ortiqova Ozoda Sharofovna

A.Qodiriy nomidagi JDPU o’qituvchisi, Jizzax, O’zbekiston

e-mail: ozoda_o@jdpu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada kiyimni jamiyat hayotidagi o’rni to’g’risida keng ma’lumot beriladi. Shu bilan birga, tikish san’atining ahamiyati haqidagi muhim g’oyalar qayd etildi.

Kalit so’zlar: aksesuar, estetika, tikish tarixi, tatuirovka, tikish uslublari.

Аннотация: В данной статье представлена обширная информация о роли одежды в жизни общества. В то же время были отмечены важные мысли о значении швейного искусства.

Ключевые слова: аксессуары, эстетика, история шитья, тату, стили шитья.

Abstract: This article provides extensive information about the role of clothing in the life of society. At the same time, important ideas about the importance of sewing art were noted.

Key words: accessories, aesthetics, sewing history, tattoo, sewing styles.

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o’rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o’zaro aloqalarini tadbiiq etish bilan chambarchas bog’liqdir. U moddiy va ma’naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o’ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko’rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma’noda libos tarixini o’rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an’analari, yashash tarzi haqida kattagina ma’lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlarini, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba’zi bir elementlari, diniy e’tiqod, nafosat va estetik normalar o’z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyliigi, quvonchli yohud qayg’uli voqealar namoyon bo’ladi.

Kiyim jamiyat moddiy va ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomondan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma’lum bir moddiy qiymatga ega bo’lib, ma’lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan u amaliy-bezak san’ati namunasi hamdir. Me’moriy inshoatlar, mehnat va turmush qurollari singari kiyim ham ma’lum bir tarixiy davr, mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, xalqning milliy o’ziga xosliklari va uning go’zallik haqidagi tasavvuri haqida ma’lumot beradi.

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatdan bir-biri bilan mushtarak ko‘rinsa-da, ushbu tushunchalar o‘rtasida birmuncha farqlar ham mavjud.

Kiyim deganda, avvalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun zarur bo‘lgan, uni tashqi muhitning turli ta’sirlaridan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi. Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim, ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyafzal, bosh kiyimlari.

Mana shu predmetlar turli vazifalarni bajaruvchi aksessuarlar, bezaklar, soch turmagi, pardoz bilan birga libosni tashkil etadi. Aynan libos insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, yoshi, jinsi, xarakteri va estetik didini namoyon etadi.

Liboslarning asosiy turlari va shakli, ba’zi bir tadqiqotchilar kiyim uyalish hissiyoti sabab paydo bo‘lgan desa, boshqasi o‘z tanasini bezash niyati sabab deydi, uchinchi birlari esa inson sovuqdan himoyalaniish uchun kiyimga ehtiyoj sezgan deb javob beradi. Darhaqiqat, kiyim qachon paydo bo‘lgan degan savol ko‘pchilikni qiziqтира kerak. Insoniyat unga nima sabab ehtiyoj sezgan? Bu va bu kabi savollarga javob berish uchun qadimshunoslik fani yordamga keladi. Qadimshunoslik (arxeologik) qazilmalari kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida (40-25 ming yil ilgari) paydo bo‘lganini ko‘rsatadi. Poyafzal birmuncha keyingi davrlarda paydo bo‘lgan bo‘lib, libosning boshqa elementlaridan ko‘ra birmuncha kam tarqalgan.

Kiyim nafaqat tabiiy ehtiyojni ta’minlovchi bir vosita, shu bilan birga u amaliy san’at namunasi hamdir. U amaliy san’atning barcha namunalari singari go‘zallik hamda ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilganlik bilan ajralib turadi. Tanani turli tashqi ta’sirlardan, xususan, issiq va sovuqdan saqlashdek amaliy vazifani bajarish bilan birga, u bezak, chiroy singari estetik funksiyalarga ham ega. Shu sababli ham jamiyat qanchalik taraqqiyot etib borgan sari, insonlar estetik didi oshib borgan sari kiyimlarning bezagiga, asosiysi takrorlanmasligiga e’tibor ortib boraveradi.

Ma’lumki, dastlabki davrlarda inson tabiatning turli ta’sirlari, shuningdek, hayvon va hashoratlarning chaqishidan o‘zini himoyalash maqsadida tanasiga tuproq, loy, moy surtib yurgan. Keyinchalik bu surtmalarga o‘simlik bo‘yoqlari qo‘shilib, inson tanasini turli shakl va ranglar bilan bezash urf bo‘lgan. Galda tanaga tatuirovkalar (teri ostiga turli bo‘yoqlarni kiritish) chizish orqali himoya qobig‘ining vaqtini uzaytirish odat tusiga kirgan. Har xil qushlar patlari, o‘ldirilgan hayvonlar tishlari, suyaklar, sochlar turli ramziy vazifalarni bajarish bilan birga tanani himoyalagan ham. Vaqt o‘tgan sari tanasining qanchalik katta qismi ma’lum

bir yopinchiq bilan berkitila borgan sari inson turli ramzlarni mavhumlash maqsadida quloq, burun, lab, dahanda sun'iy mahkamlovchi usullar o'ylab topgan va ulardan bezak sifatida foydalana boshlagan.

Aynan mana shu hozir biz tilga olgan tanani bo'yash, tatuirovkalar kiyimning dastlabki shakllari bo'lib, matodan qilingan kiyimlar paydo bo'lgach ham, ular e'tibordan qolmadi. Endi ular libosning ma'lum bir elementi sifatida namoyon bo'lib, unga ko'rk va estetik qiymat berish vazifasini bajargan.

Oradan vaqt o'tib, insoniyat ip yigirish va undan mato to'qishni o'ylab topgan, tanaga tushurilgan taturovkalar matolarga ko'chib, undagi bezak vazifasini o'tay boshlagan.

Tarixiy liboslarda bezaklar nafaqat o'z egasining ijtimoiy kelib chiqishi, ya'ni tabaqasini anglatgan, shuningdek, ma'juziy ma'no kasb etish bilan birga, kishilarning estetik didini ham ifodalagan. U vaqt o'tgan sari takomillashib, ularning turlari ko'payib, shakllari murakkablashib bordi. Xususan, ularning yechib kiyiladigan, tanaga mahkamlanadigan (bilakuzuklar, uzuklar, ziraklar, matoga mahkamlangan yoo'ud tushurilgan (kashtalar, bosma rasmlar, bo'rtma bezakli)turlari paydo bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan libos va kiyimlarning paydo bo'lishi va jamiyatda kiyimlarni o'rni haqidagi ma'lumotlardan mash'gulotlarda foydalanib boorish o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilim va malakalarining samarali shakllanishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raxmatullayeva D, Xodjayeva U, Ataxanova F. “Libos tarixi”, darslik. Toshkent: “Cano-standart” nashriyoti, 2015 y
2. Komissarjevskiy F.F. “Istoriya kostyuma”, ucheb. posobiye. Minsk. Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2001 g.
7. Kon-Viner. “Istoriya stiley izobrazitel'nykh iskusstv”, ucheb. Minsk. Izd-vo VGUES, 2000 g.
8. Mersalova.M.N. “Kostyum raznykh vremen i narodov”, ucheb. posobiye. - M. Akademiya mody, 1993-1995 g
9. Plaksina.E.B.i dr. “Istoriya kostyuma. Stili i napravleniya”, ucheb. -M. Izd-vo VGUES, 2003 g.
10. Sadikova N. “O'zbek milliy kiyimlari”, o'quv qo'llanma.. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003 y
11. Sadikova N. “O'zbek milliy kiyimlari”, o'quv qo'llanma.. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006 y-191